
Buvayda tumanida g'alla o'rim-yig'im mavsumi boshlandi

Buvayda tumani "Nuri Baxt" fermer xo'jaligida g'alla hosilini nes nobut qilmasdan, uyushqoqlik bilan o'rib-yig'ib olishga bag'ishlangan seminari o'tkazildi.

Seminarda Buvayda tuman hokimi Behzodjon Ibragimov, Tuman IIB boshlig'i Rustamjon Xayitov, g'allachilik klasterlari rahbarlari, yig'im otryadlari boshliqlari, qishloq xo'jaligi tizimidagi tashkilotlar mutasaddilari ishtirok etdi.

Buvayda tumanida 2024 yil hosili uchun 222 ta fermer va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalarining 1251 ta konturlarida xo'jaliklarining 6800 gektar maydonlarida kuzgi boshqoli don yetishtirildi.

Joriy yilda tumandagi 222 ta fermer xo'jaliklari bilan 4ta klaster korxonalari va "Qo'qondonmahsulotlari" korxonasi o'rtasida 6800 gektar maydonda jami 22181 tonna don sotish bo'yicha shartnomalari tuzilgan.

2024-06-06 18:55:44